



## IMOM MOTURIDIY

XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI  
INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CENTER

المركز الدولي للبحوث العلمية

Jurnalga maqolalar qabul qilish  
uchun maxsus veb-sayt:

[www.maturidijournal.uz](http://www.maturidijournal.uz)

+998971 244-35-36

[www.moturidiy.uz](http://www.moturidiy.uz)

@moturidiyuz

info@moturidiy.uz

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal

ISSN 2181-1881



# MOTURIDIYLIK

THE MATURIDIYYA - الماتريدية - МАТУРИДИЗМ

Narsalarning asl mohiyatini  
bilishga olib boradigan yo'llar - hissiy anglash,  
rost xabar va aqlidir.



2/2023

# MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм



## ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

**Музаффар КОМИЛОВ** – тарих фанлари номзоди, доцент

**Нуриддин ХОЛИҚНАЗАРОВ** – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

**Шоазим МИНОВАРОВ** – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

**Давропбек МАХСУДОВ** – тарих фанлари доктори, доцент

**Зоҳиджон ИСЛОМОВ** – филология фанлари доктори, профессор

**Аҳаджон ҲАСАНОВ** – тарих фанлари доктори, профессор

**Шовосил ЗИЁДОВ** – тарих фанлари доктори, доцент

**Жамолиддин КАРИМОВ** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

**Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ** (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

**Маҳмуд Эрол ҚИЛИЧ** (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCISA Бош директори

**Назир Мухаммад АЙЁД** (نظير محمد عياد) – илоҳиёт фанлари доктори, Ал-Азҳар мажмуаси Ислом тадқиқотлари академияси Бош котиби

**Режеп ТУЗЖУ (Reser Tuzcu)** – илоҳиёт фанлари доктори, профессор, Салжук университети ҳузуридаги Имом Мотуридий тадқиқот маркази директори

**Аширбек МУМИНОВ** – тарих фанлари доктори, профессор, IRCISA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчиси

**Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ (Kamaluddin Nurdin Marjuni)** – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

**Дониёр МУРАТОВ** – тарих фанлари номзоди, доцент

**Одил ЭРНАЗАРОВ** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари  
бўйича қўмитасининг 2023 йил 8 июньдаги  
03-07/4601-сонли ҳулосаси асосида тайёрланди.



### Муассис:

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ  
АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ  
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО  
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ

Бош муҳаррир:

**Жамолиддин Каримов,**

*Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

Масъул муҳаррир:

**Зафар Фахриддинов,**

*Исломишунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)*

Саҳифаловчи:

**Зарифжон Арслонов**

Дизайнер:

**Зарифжон Ғуломов**

“Мотуридийлик” журнали

Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация  
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги 310/10-  
сон қарори билан диссертация асосий илмий  
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий  
нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабрда Ўзбекистон  
Республикаси Президенти Администрацияси  
ҳузуридаги Ахборот ва оммавий  
коммуникациялар агентлиги томонидан  
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳар, Шайхонтохур тумани,  
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-уй.

**E-mail:** maturidijournal.uz

**Web-sahifa:** info@motturidiy.uz

Телефонлар: (+99871) 244-35-21,  
(+99871) 244-35-47

## МУНДАРИЖА

### ИСЛОМШУНОСЛИК

**Ibrohim Usmonov.**

Шариат ва тасаввуф: герменевтик ёндашувлар (Ҳаким Термизий асарларида юридик герменевтика)..... 4

**Zafar Fakhridinov.**

Ҳаким Термизийнинг тафсир ва таъвил борасидаги қарашлари ..... 13

**Numonjon Turayev.**

Имом Бухорийнинг “ат-Тарих ал-кабир” асаридаги “тафарруд ар-ровий”га доир услуби..... 20

**Doston Mustafayev.**

“Ҳошия ала ал-Кашшоф” асарининг тафсиршуносликдаги аҳамияти ..... 28

### ДИНШУНОСЛИК

**Komiljon Shermukhammedov.**

Мисрдаги “Муслмон биродарлар” таъсирида шаклланган экстремистик ҳаракатлар: қиёсий таҳлил ..... 36

**Shukrullo Jurayev.**

Муҳаммад Шайбоний асарларида тинчлик тамойилларининг акс этиши ..... 46

**Dilfuza Zakirova.**

Динлардаги таъқик тушунчасига доир қарашлар таҳлили ..... 55

**Elyorjon Saminov.**

Радикализм – экстремизм ва терроризмга элтувчи сўнгги босқич ..... 63

### ИСЛОМ ТАРИХИ

**Muzaffarkhon Joniyev.**

Совет даврида Ўрта Осиё муслмонларининг ҳаж сафарлари (1920-1930 йиллар)..... 70

**Oybek Sotvoldiyev.**

Табақот жанрининг юзага келиш ва ривожланиш тарихи ..... 80

**Sayqal Ahmedov.**

Мовароуннаҳр мўғуллар ҳукмронлиги даврида ..... 87

### ИСЛОМ МАНБАШУНОСЛИГИ

**Doniyor Muratov.**

Абдуллоҳ Субазмуний ва унинг “Кашф Ал-Осор” асари ..... 94

**Mas’udkhon Ismoilov.**

Хожа Муҳаммад Порсо “Ҳафтоду се фирқа” рисоласининг исломдаги фирқаларни ўрганишдаги аҳамияти ..... 104

**Zokhidjon Abdullayev.**

Имом Бухорийнинг “Халқ афъол ал-ибод” асари ва унинг ёзилиш услублари ..... 112

**Saidmuhammadkhon Muhibullayev.**

Қамолитдин Баъзий Таржимаи ҳоли ва яшаган давридаги илмий, ижтимоий ва сиёсий муҳит ..... 122

**Maftuna Muminova.**

Navoiy asarlarida ustoz-shogird g’oyalarning manbaviy va milliy asoslari..... 130

**Malika Nosirova, Saidakhon Asqarova.**

Mahmud Zamaxshariyning “al-Mufasssal fi san’at al-e’rob” asaridagi she’riy parchalar tasnifi ..... 137

**Maftuna B. MUMINOVA,**  
International Islamic Academy of  
Uzbekistan, Basic doctoral student.  
A.Kadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.  
E-mail: [Maftunakhonm@mail.ru](mailto:Maftunakhonm@mail.ru)

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023-2/16

**ALISHER NAVOIY ASARLARIDA USTOZ-  
SHOGIRD G‘OYALARINING MANBAVIY  
VA MILLIY ASOSLARI**

**SOURCE-RELATED AND NATIONAL  
FOUNDATIONS OF TEACHER-STUDENT  
IDEAS IN NAVAI’S WORKS**

**ИСТОКИ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ  
ОСНОВЫ ИДЕЙ НАСТАВНИЧЕСТВА И  
УЧЕНИЧЕСТВА В ТВОРЧЕСТВЕ НАВОИ**

**KIRISH**

Qadimgi Sharqda ustoz-shogirdlik munosabatlari qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Bugunga qadar davom etayotgan ustoz-shogirdlik rishtalari o‘zaro ehtirom, muhabbat, g‘amxo‘rlik va fidoyilik tushunchalari bilan chambarchas bog‘lanib ketganki, ularni bir-biridan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi.

Musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma‘naviy hayotiga chuqur kirib borgan hamda fan, madaniyat, adabiyot rivojiga katta va ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan tasavvuf ta‘limotida ham ustoz-shogirdlik (pir-muridlik) munosabatlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Aytish mumkinki, “muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biror-bir fenomen yoki u haqdagi tushuncha va tamoyillar o‘z-o‘zidan, osongina paydo bo‘lmaydi va tasodifan dunyoga kelib qolmaydi” (Shavkat Mirziyoyev, 2021).

**ASOSIY QISM**

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida ustoz va shogird munosabati masalasi bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Navoiyning bu boradagi nazariy qarashlari e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan muhim jihatlardandir. Shoir ijodidagi

“Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila” (A. Navoiy, 1998) kabi satrlar ustozlik maqomining naqadar ulug‘ligi hamda shogirdning ustoz oldidagi mas‘uliyati nechog‘lik katta ekani haqida saboq bersa, ustozlarga ehtirom ko‘rsatish masalasida shoirning o‘z shaxsiy hayoti o‘rnak va namuna maktabi bo‘la oladi.

Ma‘lumki, Alisher Navoiy ko‘plab ustozlardan ilmning turli sohalari bo‘yicha ta‘lim olgan. Mutafakkir shoir o‘z asarlarida ularning nomini hamisha yuksak ehtirom ila tilga oladi. Shayx Abul Lays Samarqandiy, Xoja Yusuf Burhon, Darvesh Mansur, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardasher, Abdurahmon Jomiylar haqida shoirning shogirdlik muhabbati aks etgan bir necha asarlari bor (A. Navoiy, 1997). Xususan, Alisher Navoiy ijodining har bir bosqichida ustoz va piri Abdurahmon Jomiyga alohida to‘xtalib o‘tib, “Xamsa” dostonlaridagi maxsus boblarda ustozini madh etadi. “Xamsat ul-mutahayyirin” risolasini Abdurahmon Jomiy xotirasiga bag‘ishlab, unda ustoz hayoti va faoliyatining muhim qirralarini yozib qoldiradi. Mazkur bag‘ishlovlardan anglashiladiki, Alisher Navoiy shogird sifatida ustozlariga sadoqat, muhabbat va fidoyilik bobida go‘zal ibratlar qoldirgan. Har bir ishda ustozdan maslahat olish, uning ma‘naviy madadiga suyanish, duosini so‘rash, ixlos qilish Alisher Navoiyning xos xususiyatiga aylangan bebaho fazilatlar edi. O‘z o‘rnida ustozlar e‘tirofi va e‘tiborini qozonish baxti buyuk mutafakkirga umri davomida hamroh bo‘ldi: Abdurahmon Jomiyning biror asari turkiy shogirdining nazaridan o‘tmasdan, xalq e‘tiboriga havola qilinmas edi. Bu haqda shoir “Hayrat ul-abror” dostonida faxriya tarzida shunday yozadi:

“Nomag‘akim, roqim etib xomasin,

Ko‘rmadi men ko‘rmayin el nomasin” (A. Navoiy, 1991).

Shuningdek, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” va “Lison ut-tayr” dostonlarida ustoz-shogird munosabatlarini badiiy obrazlar harakati zamirida ko‘rsatib berdi. Xususan, Farhodning maqsad sari borishida Xizr, Suhaylo, Suqrot kabi pirlardan duo va ma‘naviy madad, yo‘l-yo‘riq olgani; hunarmandlik bobida Moniy va Boniy, Qoranga shogird tushgani alohida ahamiyatga ega hodisalardandir (A. Navoiy, 1991). Farhod Suqrot huzuriga borar yo‘lda ma‘rifatning bir qismi – maqomot manzillarini bosib o‘tdi, piri

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida ustoz-shogird g'oyalarining manbaviy va milliy asoslari masalasi yoritilgan. Buyuk mutafakkir ijodida ustoz va shogird munosabati masalasi bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'lishi asoslantirilib, ustozlarga ehtirom ko'rsatish masalasida shoirning o'z shaxsiy hayoti o'rnak va namuna sifatida keltirilgan. Ustoz va shogird munosabati masalasining asarlarda qo'llanilishi, g'azal misralarida ularning jozibador talqin etilishi tahlil qilingan. Xususan, Xamsa dostonida ustoz va shogird munosabati masalasi inson kamolotining muhim omili ekani yoritilgan. Ustoz va shogird munosabatlari yoritilishida shoir yashagan davrga oid qarashlar aks etgan. Alisher Navoiy dostonlarida ustoz va shogird munosabati talqini badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanganligi o'rganilgan.

Shuningdek, ustoz va shogird munosabati masalasining zamonaviy ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ahamiyati misollar yordamida yoritilgan hamda Alisher Navoiy asarlarining bugungi kundagi ahamiyati tahlil etilgan. Anglashiladiki, komillik saboqlari, u xoh ma'naviy, xoh kasbiy sohada bo'lsin, ustozlarning sobit irodasi, husni xulqi, qat'iyati va bag'rikengligisiz hamda shogirdlarning qunti, ixlosi, muhabbati, sabri va zehnisiz bugunga qadar yetib kela olmaganidek, kelajakka ham yetib borolmaydi. Zotan, ustoz va shogird xalqalari komillik saboqlarini tashishda uzviy va davomiydir. Ustozlik inson sha'nini ulug'lovchi yuksak maqom bo'lsa, shogirdlik shu maqomga yetaklovchi bir yo'l va shu maqomning ajralmas qismi hamdir. Shu ma'noda ulug' Alisher Navoiy o'z hayoti va ijodi misolida ustoz va shogirdlik an'alariga nechog'lik yuksak ahamiyat qaratgani haqida so'z yuritish har zamon uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, aksiologiya, ustoz-shogird, ustoz, komillik, iroda, g'oya, milliy, bag'rikenglik, qat'iyat.

**Abstract.** This article discusses the origins and national foundations of the ideas of the teacher-student in the work of Alisher Navai. In the work of the great thinker, the issue of the relationship between teacher and student manifests itself in several directions, and the personal life of the poet is given as an example and an example in showing respect for teachers. The application of teacher-student relations in works and their attractive interpretation in ghazals are analyzed. In particular, the poem *Xamsa* emphasizes the problem of the relationship between teacher and student as an important factor in human development. The relationship between teacher and student reflects the views of the era of the poet. In the works of Alisher Navai, it is studied that the interpretation of the relationship between a teacher and a student is expressed using artistic images.

Also, with the help of examples, the significance of the teacher-student relationship in modern social and political life is highlighted, and the significance of Alisher Navai's work in our days is analyzed. It is clear that moralizing, whether in the spiritual or professional sphere, cannot reach the future without the strong will, good character, perseverance, and tolerance of teachers and diligence, sincerity, love, patience, and intelligence of students. Since the relationship between teacher and student is interconnected in conducting teachings about morality. Meanwhile mentoring is a high status that celebrates human dignity, apprenticeship is a path to and an integral part of this status. In this sense, it is important to note that the great Alisher Navai in his life and work paid great attention to the traditions of the teacher and student.

**Keywords:** Alisher Navai, axiology, teacher-student, teacher, perfection, will, idea, nationality, tolerance, determination.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются источниковедческие и национальные истоки вопросов взаимоотношений между учителем и учеником в творчестве Алишера Навои. В творчестве великого мыслителя вопрос взаимоотношений учителя и ученика проявляется в нескольких направлениях, а личная жизнь самого поэта является примером проявления уважения к учителям и наставникам. В статье дан анализ отношений "учитель-ученик" в произведениях поэта, их интерпретация в его стихах-газелях. В частности, в произведении "Хамса" подчеркивается проблема взаимоотношений учителя и ученика как один из важных факторов человеческого развития. Отношения учителя и ученика отражают взгляды поколения, современного поэту на данный аспект. В произведениях Алишера Навои интерпретация взаимоотношений учителя и ученика выражается посредством художественных образов.

Также с помощью примеров обоснована актуальность отношений учитель-ученик и значение творчества Алишера Навои для современной общественно-политической жизни. Пути к совершенству, будь то в духовной или профессиональной сфере, невозможно достичь без твердой воли, благочестивого характера, настойчивости и терпимости учителей и усердия, искренности, любви, терпения и ума учеников. Так как, отношения учителя и ученика взаимосвязаны между собой в достижении совершенства. В то время как наставничество – это высокий статус, прославляющий человеческое достоинство, а ученичество – это путь к этому статусу и неотъемлемая часть этого статуса. В этом смысле важно отметить, что Алишер Навои уделял огромное внимание традиционности взаимоотношений учителя и ученика, что получило отражение в его биографии и творчестве.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, aksiologiya, ученик, учитель, совершенство, воля, идея, национальность, толерантность, решительность.

murshid – komil inson suhbatidan bahra topib, o‘z dardi nima ekanini bildi; ishq, suluk mohiyatini angladi – o‘zligini va ilohiyotning sehu sinoatini taniy boshladi (A. Navoiy, 2009). Buyuk Iskandar yer yuzini zabt etarkan, ustoz Arastuning o‘gitlariga jiddiy quloq tutib, ularga amal qildi, muallimiga yuksak hurmat va ehtiromda bo‘ldi.

“Lison ut-tayr”da qushlarning ustoz o‘rnidagi Hudhudga itoat bilan ergashib, murodga erishganlari misolida ham Alisher Navoiyning aynan ustoz va shogird masalasidagi qarashlari yorqin aks etgan (A. Navoiy, 1991). Zero, “murid – murod, ya’ni maqsadga intiluvchi odam; murod esa – Alloh taoloning vasli. Muridning asosiy xislati – yozmandlik, ya’ni talabgor bo‘lish, murshidi komil etagini tutib, aytganlariga so‘zsiz rioya qilishdir. Pirsiz solih manzilga yetolmaydi. Chunki odam o‘zini o‘zi nazorat qilishi qiyin, toki birov rahnamolik qilib, yo‘l ko‘rsatmasa, mushkuli oson bo‘lmaydi. Rahnamo bo‘lmasa, hatto eng yaxshi niyatlar ham samara bermay, qalbdagi zavqu shavq noto‘g‘ri yo‘lda sarf bo‘lishi, muhabbat isyonga aylanishi hech gap emas” (A. Navoiy, 2009).

O‘z navbatida Alisher Navoiyning o‘zi ham jonkuyar ustoz sifatida ko‘plab yosh san’atkorlar, olimlar, shoiru fozillarga homiylik qilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, “Ahli fazl va hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay...” (Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008). O‘z davrining mashhur sozandalari Ustod Qulmuhammad, Shayx Noyiy, Husayn Udiy, tasviriy san’at ustalari Behzod va Shoh Muzaffar, tarixchi Xondamir, she’r ilmining bilimdoni Atoulloh Husayniy, o‘z davrining qomusiy olimi Husayn Voiz Koshifiy va yana ko‘plab iste’dodlar Hazrat Navoiyning tarbiyasida voyaga yetgan edilar. Aytish mumkinki, insoniyat kamoloti ustoz va shogirdlar silsilasiga chambarchas bog‘liq ekan, shogirdlarning aziz bo‘lishlari ustozlar duosi va rizosi bilan ekan, Alisher Navoiyning bu boradagi qarashlari, falsafiy fikrlari, shubhasiz, yanada ahamiyatliroq, yanada muhimroq hisoblanaveradi.

Ustozlarga ergashib, Navoiy hayotida g‘oyaviy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan ustoz-shogirdlik an’anasi uning ijodida, asarlaridagi timsollarda ham aks etdi. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonining xotimasida shunday yozadi:

*“Insonga erur kamol matlub,*

*Andin dog‘i dardi hol matlub”* (A. Navoiy, 1992).

Ya’ni, inson bu hayotda komillikka intilib, uni istab yashamog‘i, buning uchun esa dard va hol egasi

bo‘lmog‘i lozimligi ta’kidlanmoqda. Agar inson bir necha ilmlarni egallagan bo‘lsa-yu, olgan ilmiga ixlos, muhabbat bilan amal qilmasa, qalbida el-yurt, Vatan, unga samimiy va xolis xizmat qilish qayg‘usi, dardi bo‘lmasa, bundan ne foyda:

*“Har kimga ulum bo‘lsa vosil,*

*Gar dardiyu hali yo‘q, ne hosil?”* (A. Navoiy, 1992).

“Xamsa” asarining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da juda muhim falsafiy, axloqiy, siyosiy masalalar haqida fikr yuritilib, shoir ularga o‘z munosabatini juda ta’sirli tarzda bildirgan. Yoshlarning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etuvchi ustoz-shogird masalasida shoarning bildirgan fikrlari ahamiyatli:

*“Bo‘lmas adabsiz kishilar arjumand,*

*Past etar ul xaylni charxi baland”* (A. Navoiy, 1991).

Odob insonlargagina xos bo‘lgan yuksak axloqiy fazilatlardan biri sanalarkan, u bu fazilatga ustozlarning yo‘l-yo‘rig‘i, ma’naviy ko‘rsatmasi ila jamiyatda e’tibor qozonadi.

Aynan Navoiyning komil inson bo‘lib voyaga yetishida, ilmiy-ijodiy yutuqlarga erishishida ustozlarining diniy bilimlarini puxta olgani va tasavvuf olamidani boxabarligi, naqshbandiya tariqatiga amal qilgani eng asosiy omillardan biri bo‘lgan. Navoiyning din-u diyonatga, tasavvuf odoblariga qiziqishi va amal qilganini ijodiy faoliyati orqali bilish mumkin.

## MUHOKAMA

Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida 770 ustoz shayx hayoti va faoliyati haqida ma’lumot berib, ayrim diniy va tasavvufiy atamalarda izoh ham berib o‘tgan. Mazkur asarda Navoiy ma’naviy ustoz Xojagon Naqshbandiya tariqatining asosiy shiori sanalmish “Dil ba yoru dast ba kor”ni ma’qul ko‘rib, o‘zi ham amal qilganliklarini bildirib o‘tadi. Masalan “Nasoyim ul-muhabbat”ning boshlanish qismida Navoiy “Luqma hilliyati” (A. Navoiy, 1987) tushunchasiga to‘xtalib, aytadiki, barcha shayxlarning bu darajaga erishishlarida birinchi o‘rinda ustozlarga ergashib, tavnaga amal qilish bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda luqma hilliyatiga amal qilishdir. (Luqma hilliyati bu halol mehnat evaziga kun kechirish, halol luqma iste’mol qilish deganidir)

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Abduxoliq G‘ijdivoniyni 442-shayx sifatida tilga olib, quyidagicha ta’rif beradi: “Alarning ravishi

tariqatda hujjatdur. Barcha furuqning maqbulidurlar. Hamisha sidq-u safo yo'lida va Mustafo (s.a.v.) sunnati mutobaatida va bid'atu havo muxolafatida qadam urubdurlar va pok ravishlarin ag'yor ko'zidin yashuruvdurlar ..." (A. Navoiy, 1987).

G'ijdivoniyning yigitlik chog'ida ma'naviy ustozlari Xizr (a.s.) dan ishorat olgani, Yusuf Hamadoniydan tasavvuf ta'limini o'rgangani, xalq bilan munosabatlari, karomatlari, umuman, holatlari, rivoyatlari haqida ham "Nasoyim ul-muhabbat" da keltirib o'tiladi: "Bir niyozmand dediki, Xoja bizga iymon duosi bila madad qilsalar bo'lg'ayki, bu shayton domhohidin salomat jon eltgaybiz. Alar buyurdilarki, va'da andoqdurki, faroyiz adosidin so'ngra duo mustajob bo'lur. Sen ishda bo'l va bizni xayr duosi bila yo'q qil! Faroyiz adosidin so'ngra biz ham seni yod qilali. Bo'lg'ayki, bu orada ijobat asari zohir bo'lg'ay ham sening haqingg'a, ham bizning haqimizga!"

Ya'ni bir kishi Abduxoliq G'ijdivoniya aytdiki, bizni duo qilib, yordam bersalar, shayton makridan omon yurgaysiz. Hazrat aytdiki, sizga va'da beramanki, faroyizni ado qil, bajar, duo o'z-o'zidan mustajob bo'lur. Faroyiz adosi bu sen farzlarga amalda bo'lasan va bizni xayri duolar ila qalbingda yodga olasan, biz ham seni eslagaymiz. Ana shunda bizning haqqimizga ham, sening haqqingga aytiladigan duolar ham ijobat bo'lgay (A. Navoiy, 1987). Bu rivoyatda, faqatgina duoyi iltijolarning o'zi emas, amalda ham sidqu dildan mehnat qilsa, mashaqqat cheksa, so'ragan narsalariga og'ishmay erishish mumkinligi nazarda tutilgan.

Ustoz-shogird an'anasi Sharq xalqlari tafakkurining ajralmas qismidir. Ayniqsa, Sharq adabiyotida bu tizimning nazariy va amaliy ahamiyati yetarlicha talqin qilingan. Alisher Navoiy asarlarida ayni tizimning bir qancha jihatlari yoritilgan. Alisher Navoiy asarlari insoniyat tamaddunida badiiy ijodning eng sara namunalari. Navoiyning "Xamsa" asari tarkibiga kiruvchi ilk doston "Hayrat ul-abror" dagi maqolotlarda tasavvuf ilmiga oid yuksak insoniy fazilatlarining poetik talqini bayon qilingan. Iymon, adolat, sidq, karam, adab, qanoat, vafo, rostliq, ilm, kabi fazilatlar insonning asl insoniylik mohiyatiga dalolat qilishi haqida fikr yuritilgan. Asarda keltirilgan yuksak va oliyjanob fazilatlar hayotda uchrashishi mumkin bo'lmagan, insoniyat uchun qo'l yetmas estetik ideallar emas. Ularning barchasi voqelikda mavjud, Navoiygacha yashab o'tgan yoki muallifga zamondosh bo'lgan real tarixiy shaxslarning go'zal axloq namunalari. Asarda

keltirilgan hikoyatlarda aksariyat ana shu konkret tarixiy shaxslar, asosan ustozlari hayotidagi biron voqea qalamga olingan.

Ta'lim-tarbiyada ustoz va shogird orasidagi asosiy vosita so'z sanaladi. Ustoz rost va ta'sirchan so'z vositasida shogirdga ruhiy-ma'naviy ta'sir o'tkazish asnosida unda bilim va ko'nikmalarni shakllantirib boradi. Shu jihatdan, ustoz-shogird munosabatlarida rost va ta'sirchan so'z eng muhim va katta ahamiyat kasb etadi. Navoiy talqinida inson muazzam bir daraxtga qiyoslansa, uning hosili so'zdir. Lekin u shunchaki so'z emas. Insonning qalb qo'rida pishib yetilgan, uning moddiy va ma'naviy qiyofasini o'zida aks ettira oladigan, odamning fe'li bilan yo'g'rilgan chinakam ta'sirchan va tirik hodisadir. So'z bilan berilgan yordam o'rni kelganda hisobsiz mol-dunyo bilan berilgan yordamdan afzal bo'lishi mumkin. Chunki so'zni Navoiy "o'limdan najot" hamda "o'lik tanga hayot" beruvchi vosita deb hisoblaydi.

*"Ham so'z ila elga o'lumdin najot,*

*Ham so'z ila topib o'luk tan hayot.*

*Bir so'z etib oncha baliyatni daf,*

*Kim sohibon ganj yetishmay bu naf..."*

(A. Navoiy, 1991).

Agar inson yaxshi so'z aytishga imkon topa olmasa, yordamga muhtoj kishiga nisbatan qalbida bir insoniylik tuyishi zarur. Boshqalar muvaffaqiyatidan quvonish, dardiga sherik bo'lish ham o'ziga xos ko'mak, aslida. Navoiy asarlarida insonga mol-dunyo, mansab-martaba, ilm, nasl-nasab yoki boshqa tafovutlardan kelib chiqib emas, avvalo, insonligi va insoniyligi, olgan ilmi nuqtai nazaridan baho beriladi. "Hayrat ul-abror" da keltirilgan Ayyubi xalaf va noxalaf o'g'ri haqidagi hikoyatda ayni shu holatning guvohi bo'lish mumkin (A. Navoiy, 1991). Hikoyatda shayx Ayyub kechasi o'z hujrasida ibodat bilan mashg'ulligida bir o'g'ri laxm kavlab xonaga kirib boradi. U yerdagi hamma arziqli narsalarni olib, qaytib ketayotganida yuklari bilan lahmga sig'may qoladi. Bu holni to'g'ri anglagan shayx o'g'riga muruvvat ko'rsatadi va eshikni ochib beradi. Bunday kutilmagan munosabatdan qattiq ta'sirlangan o'g'ri shayx huzurida tavba qilib, o'zining nojo'ya holatini isloh etadi. Mana shu birgina hikoyat vositasida muallif murabbiy mahorati, ma'rifiy ta'sir hamda ma'naviy kamolot masalasini yaqqol ifoda etgan. Dostondagi Boyazid va uning shogirdi, Ibrohim Adham va Robia, Shoh G'oziy va kampir, sher bilan durroj, Xoja Muhammad Porso va o'g'li Abu Nasr, Faxriddin Roziy va Xorazmshoh, Hotimi Toiy va

o'tinchi chol kabi hikoyatlarda ham ayni shu kabi ta'sirchan uslubning, komil donishlik, ustozlik bilan toifalarni tarbiya etilganini guvohi bo'linadi.

Hikoyatda Ayyub o'g'rini jazolash, inkor qilish, ayblash, kamsitish yo'ldan bormadi. Bir adashgan, bechora va gumroh kishiga insoniylik nuqtai nazaridan munosabatda bo'ldi. Uni inson sifatida to'g'ri tushundi va amaliy yordam berdi... Hikoyatni haqiqiy ma'noda – faqatgina hayotiy voqelikni poetik aks ettirish natijasi sifatida o'rganish ham mumkin.

Bunda o'quvchi bir paytlar tarixda ikki kishi orasida bo'lib o'tgan kichik voqea haqida ma'lumotga ega bo'ladi, xolos. Undan o'ziga yarasha xulosa chiqarishi, o'rnatqan yo'lbosh olishi ham mumkin. Ammo asarga poetik qonuniyatlar, xususan, Alisher Navoiy ijodiy metodi prinsiplaridan kelib chiqib yondashilsa, yanada kengroq ma'nolar qatlamiga duch kelamiz.

Shuni aytish mumkinki, Navoiy tayangan poetik qonuniyatlar, xususan, mumtoz poetikaning nazariy masalalari o'rganiladigan "balog'at ilmi"ga ko'ra, har qanday nuqsonlardan xoli so'z va gapning muqtaoz hol"ga muvofiqi ("mutobaqat") eng yetakchi ahamiyat kasb etadi (Abdurahmon, 2014).

Navoiy ijodining barhayotligi ham, umrboqiyatligi ham aslida shundadir.

## NATIJA

Butun dunyoda yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan va bugungi kunda Markaziy Osiyoning kelajagi bo'lmish yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim (Sh.M.Mirziyoev, 2021). Shu nuqtai nazardan xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan ustoz-shogird an'anasini aksiologik tadqiq etish bugungi vazifalar sirasiga kiradi. Qadimdan shakllanib qadriyat darajasiga yetgan ushbu ustoz-shogird an'anasi Alisher Navoiy ijodiy merosida yanada kamol topdi. Aytish lozimki, Navoiy shaxsiyati va ijodi bilan bog'liq bir qator izlanishlar mavjud, ammo shoir ijodiy merosida ustoz-shogird ananasining aksiologik talqiniga bag'ishlangan maxsus tadqiqot ishi ko'zga tashlanmaydi.

Navoiy o'z davrida uztoz sifatida millat tarixida muhim o'rin tutgan iste'dod egalarini yetishtirib berdi. Ulardan eng yetugi shaksiz Kamoliddin Behzod edi. XV asrdagi Hirot adabiy, badiiy-ilmiiy, san'at va madaniyat muhiti paydo bo'lgan juda ko'p shaxslar singari Behzodning ijodiy kamolotida Alisher Navoiy hal qiluvchi rol o'ynagan. "Ustod

Behzod Alisherbekning tarbiyat va tavqiyati bilan, say va ehtimoli bilan mudoq taraqqiy va shuhrat, mudoq mashhur va ma'ruf bo'ldi" (Shaltut, <https://e-tarix.uz/saxslar/642-maqola.html>). Behzod ijodining mavzu doirasi, qahramonlari shu yerda Navoiy va boshqa san'atkorlar ijodi ta'sirida kamol topgan.

Navoiyning yosh ilm ahliga bo'lgan munosabati va homiyligi to'g'risida "Boburnoma"da ham e'tirof etiladi. "Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyiy va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning say va ehtimomi bila mudoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. Muncha binoyi xayr kim, ul qildi, kam kishi mudoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay" (P.Shamsiev, S.Mirzaev, 1960). Navoiyning shaxsiy kutubxonasida o'sha davrning yetuk san'atkorlari Mirak Naqqosh, Hoji Muhammad kabi musavvirlar, Hofiz Muhammad, Zayniddin Mahmud, Sulton Muhammad Nur kabi xattotlar ijod bilan band bo'lganlar. Behzod shu kutubxonada, ayniqsa, xattot Sulton Ali Mashhadiy va Mahmud Muzahhib bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo'lgan.

Navoiy davrida shogirdlik yo'li bilan uztozlardan ilmu hunar va san'at o'rganish ancha keng tarqalgan edi. O'sha davrdagi fan va san'at mudarrislaridan xunarmandlik, xattotlik, me'morlik, tabobat, kimyogarlik, san'atkorlik va shu kabilardan ilm o'rganardilar. Ayniqsa, hunar-san'at ustalarining shogirdlari ko'p bo'lgan. Shulardan biri Qulmuhammad edi. Ustod Qulmuhammad Navoiy davridagi mohir sozanda bo'lgan. "Majolis un-nafois"da keltirilishicha, g'ijjak, ud va qo'bizni juda yaxshi chalgan, rassom va naqqosh bo'lgan. "Ustod Qulmuhammad kichik erkandakim, musiqiy o'rganur erdi, chun bot o'rganmoqi bila xo'b ishlar yasamog'i shuhrat tutti. Faqirg'a doiya bo'ldikim, bu fanning ilmiysini dag'i bilgay, mavlono Bu Alishoh bo'kakim, bu fanda asrining bebadalidur – anga siporish qilildi". Shuningdek, yana bir musiqiy ilm ustozlaridan Alishoh edti. "Navoiy uning musiqa nazariyotiga oid "Asl ul-vasl" nomli asarini tilga oladi. Shoir Qulmuhammadni Alishohga ta'lim olish uchun tavsiya qilgan" (Navoiy, "Hamsat ul-mutahayyirin", 1987). Navoiy musiqa ilmi rivojiga jiddiy e'tibor qaratgan va homiylilik qilgan. Uning musiqa ilmini rivojlantirish borasida g'amxo'rliqi Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiya" asarining so'z boshisida Jomiy tomonidan

bildirilgan minnatdorchilik soʻzlarida yaqqol oʻz aksini topgan: “Ulugʻ insonlar ragʻbati va eʼtibori (yaʼni Alisher Navoiy) va gʻamxoʻrligi natijasida ushbu risola yuzaga keldi” (Jomiy, 1994). Navoiy Abu Nasr Farobiydan shoh Feruzgacha davom etgan ulugʻ musiqiy ustoz-shogird anʼanasi – taraqqiyot yoʻlini munosib davom ettirdi.

Navoiy taʼlim dargohi – madrasalar qurishga ham alohida eʼtibor berdi. U Hirot shahridagi “Injil” anhuri boʻyida nihoyatda chiroyli “Ixlosiya” madrasasini barpo ettirdi. Unga nom qoʻyilishi haqida shunday deydi: “Bu Madrasa kim ulusi ixlosdin yasaldi, “Ixlosiya” ot qoʻyildi”. Navoiy chin ixlos bilan qurilgan bu madrasani oʻsha zamonning eng namunali oʻquv maskaniga aylantirish uchun mablagʻni ayamay, maxsus vaqf mulki belgilagan. Oʻz madrasasidagi oʻquvchilarni moddiy jihatdan taʼminlab turishga harakat qilgan. Madrasadagi oʻquv ishlariga bosh mudarris rahbarlik qilgan, xoʻjalik ishlarini esa mutavalli olib borgan. Madrasaga biror bir kasb-hunarga, oʻrta darajadagi maʼlumotga, ega boʻlgan shaʼriyat qoidalarini, davlat tartibotlarini yaxshi bilgan, ilmiy qobiliyati jamoalarda eʼtirof etilgan, obroʻli shaxslar tavsiyalari asosida oʻqishga qabul qilingan (Azimov D., 2020).

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da adabiyot maydonida endigina koʻrina boshlagan murid shoirlarni ham eʼtibordan chetda qoldirmaydi. Buni quyidagi misollarda koʻrish mumkin: “Mavlono Sifotiy emdi paydo boʻlgʻonlardandur, faqir hanuz ani koʻrmaydurmen, ammo sheʼrin eshitibmen”, “Mavlono Asiriy ham emdi paydo boʻlgʻon xushtabʼ yigitlardindur” (<http://e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz/navoiy/1057-maqola.html>) va boshqalar. Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasining 2-majlisida farzand oʻrnida qadrlagan shogirdi shoir Mirzobek haqida maʼlumot beradi. Xususan, Alisher Navoiy Mirzobek haqida yozar ekan, “uning juda erta vafot etganini, badiiyat jihatdan yetuk baytlar bitsa-da, ularni yakuniga yetkazmaganini afsus bilan bayon etadi. Xususan, uning

*Koʻzung ne balo qaro boʻlubtur,  
Kim jonga qaro balo boʻlubtur.*

deb boshlanuvchi matlaʼsini tugatib, oʻz devoniga kiritganligini aytadi” (D.Yusupova).

Hazrat Navoiy ustoz koʻrmagan shogirdlar haqida ham oʻz qarashlarini bayon etadi. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasida shogirdlarning murshidsiz qolganligini quyidagicha tasvirlaydi:

*“Ahli tavhid, ki be murshidi komil gashtand,  
Sadashon mushkili halmoshuda dar kor bimond*  
(A. Navoiy, 1987).

*(Haqiqatga yetishmoqchi boʻlganlar komil murshidsiz qoldi,*

*(Ularning) yuzlarcha mushkillari hal boʻlmay shundayin qoldi)”*.

“Majolis un-nafois”da Mavlono Binoiyga taʼrif bera turib, uning “sifati salbi uchun faqr tariyqin ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortti, chun piri va murshidi yoʻq erdi” (Navoiy, Majolis un-nafois, 1997) deya murshidsiz murid taqdirini achinish bilan baholaydi.

Qolaversa, Navoiy ijodiy merosida ustozini norizo aylagan muridlar taqdiri ham fojiali misollarda koʻzga tashlanadi. Jomiyning “Nafaxot ul-uns”, Navoiyning “Nasoim ul- muhabbat” asarlarida Mansur Halloj haqida maqola mavjud. Oxirida (har ikki maqola aynan) Mansur Hallojning ustozini Abu Amr ibn Usmon Makkiy tavhidʼga oid bir risola yozgani qayd etiladi. Uni pinhon tutar ekan. Mansur uni yashirincha olib, elga oshkor qiladi. Bu asar noziklik va asrorlarini tushunmay, olomon uni rad etadi. Ustozini esa bu voqeadan soʻng Mansur Hallojni “ilohi, bironi anga gumonlakim, ilik-ayogʻin kesgay va koʻzin oʻygʻay va dorgʻa tortqay, deb qargʻagan ekan. Nimaiki Mansur Halloj boshiga tushgan boʻlsa, ustodi duosi bilan boʻldi”, deyiladi (Navoiy., Mahbub ul-qulub, 1998).

Hazrat “Mahbub ul-qulub”ning Oʻn sakkizinchi fasl – “Dabiriston ahli zikrida” “Shogird agar shayxulislom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – tengri rozidur” deydi va quyidagi baytni tamsil etadi:

*“Haq yoʻlida kim senga bir harf oʻqutmish ranj ila,*

*Aylamak boʻlmas ado oning haqin yuz ganj ila”*  
(Navoiy., Mahbub ul-qulub, 1998).

Navoiy “Hayrat ul-abror” asarining 2-maqolatida bir ilm tolibining katta umidlar bilan oʻz shahridan yoʻlga chiqib, boshidan kechirgan kulfat va mashaqqatlarini tasvirlaydi. Navoiy mazkur sarguzashtni oʻzi “Samarqandga kelganidan soʻng dastlabki paytlardagi sarguzashti taassurotida yozgan boʻlsa kerak. Lekin mazkur sarguzasht oʻsha davrdagi ilm toliblari uchun juda karakterlidir.

*“Zulm durugʻ ushbuki bir notavon,  
Ilm tilab shahridin ulgay ravon.*

*Egnida avroqu kitobi aning,*

*Qilgali tahsil shitobi aning”* (D.Azimov, 2020).

<sup>1</sup> Xudoning yagonaligiga va ulugʻligiga eʼtiqod qilish ilmi – S. Gʻanieva izohi. MAT. J. 14. 295-bet.

Navoiy ilm o'rganmoqning fazilati, ustozlardan olingan saboqning sharafi haqida "Mahbub ul-qulub"da fikr yuritadi. Ilmning asosiy xususiyati kishi uchun foydali ekanida, unga qadr-qimmat va ehtrom keltirishda deb biladi. Kimki o'qib, unga amal qilmasa, yerni haydab, urug' sepmaganga yoki urug' sepib, hosilidan bahra olmaganga o'xshaydi deb ta'rif beradi.

## XULOSA

Qadimdan muazzam Sharqda ustoz-shogirdlik munosabatlari qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Odam Ato davridan tortib, to bugunga qadar davom etayotgan ustoz-shogirdlik rishtalari o'zaro ehtirom va muhabbat, g'amxo'rlik va fidoyilik tushunchalari bilan chambarchas bog'lanib ketganki, ularni bir-biridan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib borgan va fan, madaniyat hamda adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan tasavvuf ta'limotida ham ustoz-shogirdlik (pir-muridlik) munosabatlari muhim ahamiyat kasb etgan. Shu nuqtai nazardan, hazrat Navoiy ham shu yo'ldan bordi va uni yuksak darajaga olib chiqdi, boyitdi. Sho'rni bir tomondan ijodkor sifatida o'z shogirdlariga ilmu hunar o'rgatgani, ikkinchi tomondan shaxs sifatida ularga ham ma'nan ham moddiy homiylik qilganligi uning chinakam millat fidoyisi bo'lganligini anglatadi.

## МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Abdurahmon X. (2014). Talxisul Miftoh. Bayrut: Maktabat al-asriyya .
2. Azimov D. (2020). Alisher Navoiy – ta'lim-tarbiya jonkuyari s. Получено из Volume: 1, Issue: 5.
3. Yusupova D. (б.д.). Alisher Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslikka doir asarlari. <http://e.adabiyot.uz/uzbek/mumoz/navoiy/1057-maqola>.
4. Jomiy A. (1994). "Risolai musiqiya". Abdulla Qodiriy nomli Toshkent davlat madaniyat instituti.
5. Najmiddin Kubro. (2009). Tasavvuf. Toshkent: Movarounnahr nashriyoti.
6. Alisher Navoiy. (1987). "Hamsat ul-mutahayyirin". O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti.
7. Alisher Navoiy. (1987). "Nasoyim ul-muhabbat" J. 17. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Alisher Navoiy. (1991). Farhod va Shirin J. 8. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
9. Alisher Navoiy. (1992). "Layli va Majnun". Toshkent: "Fan" nashriyoti.
10. Alisher Navoiy. (1997). Majolis un-nafois. J. 13. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
11. Alisher Navoiy. (1991). Hayrat ul-abror. J. 7. Toshkent: "Fan" nashriyoti.

12. Alisher Navoiy. (1998). Mahbub ul-qulub (T. T.14.). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
13. Shamsiev P., Mirzaev S. (1960). Boburnoma
14. Sh.M.Mirziyoev. (2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
15. Shaltut K. (<https://e-tarix.uz/saxslar/642-maqola.html>). <https://e-tarix.uz/saxslar/642-maqola.html>.
16. Zahiriddin B. (2008). Boburnoma / Hozirgi o'zbek tiliga Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo'jaeva tabdili. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.

## REFERENCES

1. Abdurahmon Kh. (2014). Talkhis al-Miftah. Bayrut: Maktabat al-asriyya publishing house.
2. Azimov D. (2020). Alisher Navoiy – ta'lim-tarbiya jonkuyari. Vol. 1, Issue: 5.
3. Yusupova D. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslikka doir asarlari. <http://e.adabiyot.uz/uzbek/mumoz/navoiy/1057-maqola>.
4. Jomiy A. (1994). "Risolai musiqiya". Abdulla Qodiriy nomli Toshkent davlat madaniyat instituti.
5. Najmiddin Kubro. (2009). Tasavvuf. Tashkent: "Movarounnahr" publishing house.
6. Alisher Navoiy. (1987). "Khamsat ul-mutahayyirin". O'zbekiston SSR "Fan" publishing house.
7. Alisher Navoiy. (1987). "Nasoyim ul-muhabbat" Vol. 17. Tashkent: "Fan" publishing house.
8. Alisher Navoiy. (1991). Farhod va Shirin Vol. 8. Toshkent: "Fan" publishing house.
9. Alisher Navoiy. (1992). "Layli va Majnun". Toshkent: "Fan" publishing house.
10. Alisher Navoiy. (1997). Majolis un-nafois Vol. 13. Tashkent: "Fan" publishing house.
11. Alisher Navoiy. (1991). Hayrat ul-abror Vol. 7. Tashkent: "Fan" publishing house.
12. Alisher Navoiy. (1998). Mahbub ul-qulub Vol. 14. Tashkent: "Fan" publishing house.
13. Shamsiev P., Mirzaev S. (1960). Boburnoma
14. Sh.M.Mirziyoev. (2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Tashkent: "O'zbekiston" publishing house.
15. Shaltut K. (<https://e-tarix.uz/saxslar/642-maqola.html>). <https://e-tarix.uz/saxslar/642-maqola.html>.
16. Zahiriddin B. (2008). Boburnoma / Hozirgi o'zbek tiliga Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo'jaeva tabdili. Tashkent: "O'qituvchi" publishing house.



ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ  
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИНГ  
“МОТУРИДИЙЛИК” ЖУРНАЛИ

Мазкур нашр олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, докторантлари, мустақил тадқиқотчилари, магистрантлари, талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Таҳририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.  
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

# MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2023

Бош муҳаррир: **Ж.Каримов**

Муҳаррир: **З.Фахриддинов**

Нашр учун масъул: **З.Арслонов**

Чет тилларидаги матнлар муҳаррири: **О.Сотволдиев**

Дизайнер-саҳифаловчи: **З.Ғуломов**

**Манзилимиз:** Ўзбекистон халқаро ислом академияси Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази,  
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.

**Тел:** (+99871) 244-35-47, (+99871) 244-35-36. **Web:** www.maturidijournal.uz

**E-mail:** info@moturidiy.uz

Нашриётнинг лицензия рақами АІ № 0011. 06.05.2019 йил.

Босишга 27.06.2023 йил рухсат этилди. Бичими 60×84 ¼.

Ризограф усулда босилди. Шартли босма табағи 10,2.

Нашр табағи 10,4. Буюртма № 06.

Баҳоси шартнома асосида.

“Ўзбекистон халқаро ислом академияси ”  
нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.  
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.